

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova</b>	
Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati.....	6
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'ri.....	11
<b>M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov</b>	
Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi .....	16
<b>M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova</b>	
Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ...	23
<b>M.M.Yakubbayev</b>	
Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language.....	29
<b>J.A.Yuldashev</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari.....	34
<b>X.T.Nishonova</b>	
Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades .....	38
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli.....	43
<b>U.S.Do'sanov</b>	
Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi.....	47
<b>X.X.Umarov</b>	
Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов .....	51
<b>Д.К.Каримов</b>	
Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов .....	55
<b>З.Г.Гаппаров</b>	
Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании .....	61
<b>M.N.Nasritdinova</b>	
Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish.....	67
<b>M.G'Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi .....	72
<b>D.K.Baydjanova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni .....	78
<b>I.A.Raxmonov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi.....	82

## IQTISODIYOT

<b>M.K.Abadov</b>	
Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan .....	85

## FALSAFA

<b>M.A.Mamatov</b>	
So'fiylik – gumanistik ta'limot .....	90
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'ri .....	98
<b>D.Y.Qambarova</b>	
O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari.....	102



UO'K: 376-055.2:37.035

**O'QUVCHI-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOY PEDAGOGIK MODEL****СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ****SOCIO-EDUCATIONAL MODEL OF PREPARING GIRLS FOR FAMILY LIFE****Robilova Sharofat Mamajon qizi** 

Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modeli tahlil qilinadi. Ushbu model qizlarning kelajakdagi oilaviy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuvni qamrab oladi. Maqolada bilim berish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv kabi asosiy komponentlar batafsil yoritiladi.

**Аннотация**

В данной статье анализируется социально-педагогическая модель подготовки школьников к семейной жизни. Данная модель охватывает знания, практические навыки, личностное развитие и социальную адаптацию, необходимые девочкам для успешной будущей семейной жизни. В статье подробно рассматриваются такие ключевые компоненты, как передача знаний, формирование практических навыков, личностное развитие и социальная адаптация.

**Abstract**

This article analyzes the socio-pedagogical model of preparing schoolchildren for family life. This model covers the knowledge, practical skills, personal development and social adaptation necessary for girls to be successful in their future family life. The article details key components such as imparting knowledge, building practical skills, personal development, and social adaptation.

**Kalit so'zlar:** Model, shaxsiy rivojlanish, potensial, tanqidiy fikrlash, case-study, ijodkorlik, strategiya, reflex, simulyatsiya.

**Ключевые слова:** Модель, личностное развитие, потенциал, критическое мышление, кейс-стади, креативность, стратегия, рефлекс, симуляция.

**Key words:** Model, personal development, potential, critical thinking, case study, creativity, strategy, reflex, simulation.

**KIRISH**

Model qizlarning oilaviy hayotga tayyorlanishida individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga o'zlarini anglash, mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishlariga yordam beradi. Maqola, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining dolzarbligini ham ta'kidlaydi. O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir. Bu jarayon nafaqat bilim berishni, balki ijtimoiy-pedagogik yondashuv orqali qizlarning shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada o'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modeli yoritiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

**Modelning asosi:** O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modeli quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. «Bilim berish»: Qizlarga oilaviy hayotning asosiy tushunchalari, oilaviy munosabatlar va ularning o'zaro ta'siri haqida bilim berish tushuniladi.

2. «Amaliy ko'nikmalar»: Oilaviy hayotda zarur bo'lgan kundalik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, masalan, uy ishlari, moliyaviy boshqaruv, bolalar tarbiyasi haqida qayg'urishlariga va tarbiyasining namunali bo'lishiga yordam beradi.

3. «Shaxsiy rivojlanish»: Qizlarning shaxsiy qobiliyatlari va potensialini rivojlantirish, ularning mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

4. «Ijtimoiy moslashuv»: Qizlarni jamiyatda faol, mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida tarbiyalash kabilar ularni nafaqat oilaga balki, hayotga tayyorlaydi.

#### **Bilim berish**

Bilim berish jarayoni oilaviy hayotning turli jihatlarini qamrab oladi. Bu jarayonda o'quvchi-qizlarga: Ya'ni, oilaning tuzilishi va funktsiyalari haqida, oilaviy munosabatlar va ular o'rtasidagi o'zaro ta'siri, oilada muammolarni hal qilish usullari haqida ma'lumot beriladi.

#### **Amaliy ko'nikmalar**

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida qizlarga: Uy-ro'zg'or ishlari, bolalar tarbiyasi, moliyaviy boshqaruv kabi sohalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu ko'nikmalar ularning kelajakdagi oilaviy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish qizlar hayotida jiddiy ro'l o'ynaydi.

#### **Shaxsiy rivojlanish jarayonida qizlarning:**

Shaxsiy rivojlanish jarayonida qizlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

✓ «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish»: Qizlarni o'z fikrlarini asoslashga va muayyan masalalar yuzasidan mulohaza yuritishga undash. Turli mavzular bo'yicha bahs va munozaralar tashkil etish, bunda qizlar o'z nuqtai nazarlarini himoya qilishga va boshqa fikrlarni tahlil qilishga o'rgatiladi.

✓ «Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish»: Hayotiy vaziyatlar va muammolarni muhokama qilish, ularga yechim topish yo'llarini birgalikda qidirish va Case-study usuli orqali real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqishning ham o'ziga hos samaradorligi mavjud.

✓ «O'zini o'zi anglash va o'ziga ishonchni rivojlantirish»: Qizlarga o'z qobiliyatlarini anglash va o'zlariga ishonch hosil qilish uchun imkoniyatlar yaratish ya'ni, ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish va muvaffaqiyatsizliklardan o'rganishga o'rgatish.

✓ «O'quv jarayonida ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash»: Qizlarga ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun mustaqil loyihalar va topshiriqlar berish shuningdek, innovatsion fikrlash va yangi g'oyalarni ilgari surish uchun muhit yaratish.

✓ «Qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish»: Qizlarni o'z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilishga va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra olishga o'rgatish va turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam berish.

✓ Fikrlash jarayonlarini refleksiya qilish: Qizlarni o'z fikrlash jarayonlarini tahlil qilish va o'z xatolaridan saboq olishga o'rgatish, masala, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun muntazam ravishda o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki tarzda ifoda etishga undash.

Bu usullar orqali qizlar mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bu esa ularning kelajakdagi oilaviy va ijtimoiy hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga xizmat qiladi.

**O'zini o'zi anglash.** Shaxsiy rivojlanish jarayonida qizlarning o'zini o'zi anglash tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

«O'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlash»: Qizlar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari kerak. Bu jarayonda ularga o'z qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini anglashga yordam beradigan mashg'ulotlar va testlar qo'llaniladi. Har xil faoliyat turlari orqali qizlarning qobiliyatlarini namoyon qilish va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi va qo'llab quvatlanadi.

«O'z hissiyotlarini anglash va boshqarish»: Qizlarga o'z hissiyotlarini aniqlash, ifoda etish va boshqarish qobiliyatlarini o'rgatish. Bu o'z-o'zini anglash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Hissiy holatlarni tushunish va ular bilan qanday kurashish kerakligini o'rgatish uchun psixologik treninglar va mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

«Shaxsiy maqsadlar va qadriyatlarini belgilash»: Qizlarga o'zlarining shaxsiy maqsadlari va qadriyatlarini aniqlashga yordam berish. Bu jarayon ularga hayotda nima muhimligini va nima uchun kurashish kerakligini anglash imkonini beradi. Maqsad qo'yish va unga erishish strategiyalarini ishlab chiqish samaradorlikni yanada mustahkamlaydi.

«O'z-o'zini refleksiya qilish»: Qizlarni o'z fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini tahlil qilishga o'rgatish. Bu ularga o'zlarini yanada yaxshiroq tushunishga va o'zlarini takomillashtirishga yordam beradi. Kundaliklar yoki jurnal (kundalik, ya'ni o'z-o'ziga kun davomidagi vazifalarini yuklashi uchun) yozish orqali o'z-o'zini refleksiya qilishga yordam beradi.

**O'ziga ishonchni shakllantirish.** Qizlarga o'zlariga bo'lgan ishonchni shakllantirish uchun muvaffaqiyat va yutuqlarni ta'kidlab turish. Ularni muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqmasdan, ulardan saboq olishga o'rgatish zarur.

«Shaxsiy chegaralarni belgilash va hurmat qilish»: Qizlarga o'z shaxsiy chegaralarini belgilash va boshqalarning chegaralarini hurmat qilishni o'rgatish. Bu ularga o'zlarini va boshqalarni hurmat qilishga, shuningdek, sog'lom va hurmatga asoslangan munosabatlar qurishga yordam beradi.

«Sog'lom o'z-o'zini baholashni rivojlantirish»: Qizlarga realistik o'z-o'zini baholashni o'rgatish, bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlashga yordam beradi. Sog'lom o'z-o'zini baholash orqali ularning o'zlariga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga ko'maklashadi.

Bu omillar qizlarning o'zlarini anglash jarayonida muhim rol o'ynaydi va ularga shaxsiy va ijtimoiy hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Yetakchilik qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shaxsiy rivojlanish jarayonida qizlarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

«Yetakchilikka oid trening va seminarlar»: Yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish. Bu treninglar yetakchilikning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatadi. Mashg'ulotlarda turli yetakchilik uslublari, guruh boshqaruvi, qaror qabul qilish jarayonlari va muammolarni hal qilish strategiyalari o'rgatiladi.

«Jamoaviy ishlar va loyihalar»: Qizlarni jamoaviy loyihalar va faoliyatlarga jalb qilish. Bu jarayonda ularga guruhni boshqarish, vazifalarni taqsimlash va umumiy maqsadga erishish uchun jamoani birlashtirish imkoniyatlari beriladi. Qizlarni turli ijtimoiy, ilmiy yoki sport loyihalariga yetakchi sifatida tayinlash, bu ularning amaliy yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

«Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar»: Yetakchilik vaziyatlarini aks ettiruvchi rolli o'yinlar va simulyatsiyalar o'tkazish. Bu usul orqali qizlar yetakchi sifatida turli vaziyatlarda qanday harakat qilishni amalda o'rganadilar. Turli masalalar va muammolarni hal qilishda yetakchi rolda bo'lish orqali qizlar o'zlarining yetakchilik qobiliyatlarini sinab ko'radilar va rivojlantiradilar.

«Mentorlik va murabbiylik dasturlari»: Tajribali yetakchilar bilan mentorlik va murabbiylik aloqalarini o'rnatish. Mentorlar qizlarga o'z tajribalari va bilimlarini o'rgatib, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. Qizlarni yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish uchun mentorlik dasturlarini amalga oshiriladi.

«Ijtimoiy va ko'ngilli faoliyatlar»: Qizlarni ijtimoiy va ko'ngilli faoliyatlarga jalb qilish. Bu faoliyatlar qizlarga yetakchilik ko'nikmalarini amalda qo'llash imkonini beradi. Ijtimoiy loyihalarni boshqarish, jamiyatga foydali ishlar qilish orqali qizlarning yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi.

«Tashkiliy ko'nikmalarni rivojlantirish»: Qizlarga tadbirlar, seminarlar va boshqa tashkilotchilik ishlarida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish. Tadbirlar va loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish jarayonlarida yetakchi rolini bajarish orqali tashkiliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

«Yetakchilik bo'yicha adabiyotlar va materiallar»: Yetakchilikka oid kitoblar, maqolalar va boshqa materiallar bilan tanishtirish. Bu materiallar qizlarga yetakchilik nazariyalari, uslublari va muvaffaqiyatli yetakchilar tajribasini o'rganishga yordam beradi. O'quvchilarni yetakchilikka oid adabiyotlarni tahlil qilish va o'z bilimlarini kengaytirishga undaydi.

Bu usullar orqali qizlarning yetakchilik qobiliyatlari rivojlantiriladi, bu esa ularning kelajakdagi oilaviy va ijtimoiy hayotlarida muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllanishlariga yordam beradi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ijtimoiy moslashuv jarayonida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ularning hayoti va dunyo qarashlarini inobatga olish zarur. Ularning dunyoqarashlariga qarab ma'lum bir yo'nalishda oilaga tayyorlashda juda yaxshi samara beradi.

O'quvchi-qizlarning oila tushunchasi haqidagi bilimlari kengaydi: Pedagogik yondashuv orqali o'quvchi-qizlar oilaning jamiyatdagi ahamiyati, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy vazifalar haqida chuqurroq bilimlarga ega bo'ldilar.

Shaxsiy mas'uliyat va roli haqida tushuncha shakllandi: Mashg'ulotlar davomida o'quvchi-qizlar kelajakda o'zlarining oila a'zolari oldidagi mas'uliyatlarini tushunishdi. Bu, ularni kelajakda oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida katta ahamiyatga ega.

Kommunikatsiya ko'nikmalari rivojlandi: O'quvchi-qizlar oilaviy nizolarni hal qilish, muloqotni yaxshilash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu kelgusida turmush qurish jarayonida ham ularga yordam beradi.

Oila psixologiyasi va gender munosabatlariga oid bilimlar oshdi: O'quvchi-qizlar oila ichidagi psixologik munosabatlar, gender tengligi, turmush o'rtog'i bilan o'zaro hurmat va hamkorlik haqidagi bilimlarini kengaytirdilar.

Pedagogik metodikalar samaradorligi: O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llanilgan pedagogik metodlar samarali natija berdi. Mashg'ulotlar, suhbatlar, rolli o'yinlar va psixologik treninglar o'quvchi-qizlarda oilaviy munosabatlarga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirishda yordam berdi.

Oilaviy qadriyatlarining ahamiyati: Oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda va ularni saqlab qolishda maktabning va oila muhitining birgalikdagi yondashuvi dolzarb bo'ldi. Bu yondashuv, oilaviy qadriyatlarining yosh avlodga yetkazilishi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Jamiyat va maktabning hamkorligi: O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda jamiyatning, xususan, ota-onalarning faolligi ham muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonida ota-onalarni jalb qilish, ular bilan hamkorlikni kuchaytirish o'quvchi-qizlarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlariga yordam beradi.

Qo'shimcha tadbirlarning zarurati: Bu mavzu doirasida qo'shimcha tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va treninglar o'quvchi-qizlarning oilaviy hayotga yanada yaxshiroq tayyorlanishiga ko'maklashishi mumkin. Bu ularning turmushga kirishish jarayonidagi xatolarni kamaytirishga, shuningdek, oilaviy baxtni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu natijalar va muhokama o'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samaradorligini oshirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan asosiy pedagogik strategiyalarni ko'rsatib beradi.

### XULOSA

O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modeli ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli va baxtli hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu model nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, shaxsiy rivojlanishni va ijtimoiy moslashuvni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda o'quvchi-qizlarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharofat, R., & Nigora, A. (2023). THE ROLE OF GYMNASTICS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 12, 32-37.
2. Yuldashov, I. A., & Robilova, S. M. (2022). Problems of physical development of preschool children and junior school children. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 125-130.
3. Robilova, M. S. (2022). OILA-MAKTAB HAMKORLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH MUJASSAMALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(12), 183-188.
4. Sharofatkhon, R. (2022). The Role of Parents and Its Significance in Forming a Healthy Lifestyle in the Family. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 63-68.
5. Robilova, S. M. (2023). CHARACTERISTICS OF PRACTICAL PHYSICAL DEVELOPMENT OF TEENAGE STUDENTS IN FAMILY-SCHOOL PARTNERSHIP. *Conferencea*, 60-65.
6. Sharofat, R., & Nigora, A. (2023). THE ROLE OF GYMNASTICS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 12, 32-37.
7. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 2371-2375.
8. Robilova, S. M. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYAT, JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY RIVOJLANISH ASOSLARINING AHAMIYATI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(29), 764-768.
9. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 2371-2375.